

KAPALAKLARNING JUFTLASHISH VA PUSHTDORLIGINI ANIQLASH (QAROQALPAQSTON SHAROYATIDA)

O.Oripov.

IITI doktoranti A.x.i,p,p,d (PhD)

K.Kazbekova

QAXAI 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Bu maqolada Qoraqalpog'istonda xorijdan olib kelingan ipak qurti duragay urug'larini jonlandirish va qurt va kapalaklik davrida tashqi muxit omillari (harorat, namlik, yorug'lik, havo almashishi, oziq miqdori) ning juftlashish tuxum qo'yishining salbiy ta'siri o'rganilgan. Tájriyalar bir necha yil davomida Qoraqalpog'iston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar institutining Ipakchilik kafedrasida laboratoriyasida hamda har xil iqlim sharoitiga ega bo'lgan hududlarda ipak qurtining kapalaklik davrida tuxum qoyishini yaxshilash ustida tájriyalar olib borilib, natijalari ilmiy maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: urug', lishinka, ipak qurti, havo namligi, harorat, qurtxona, oziq, tut bargi, pilla, ipak qurti hayotchangligi, navlilik, unumdorlik, g'umbak, kapalak.

Kirish. Bugungi kunda jahon bozorida ipak, tabiiy ipak va ipak matolariga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Ayni vaqtda, «...ipakchilik rivojlangan 20 dan ortiq davlatlarda tut ipak qurti urug'lari tayyorlanmoqda, ishlab chiqarilayotgan ipak qurti urug'larining 14,5 mln. qutisi Xitoy Aholisi Respublikasi, 5,0 mln. qutisi Hindiston, 300 mingta qutisi O'zbekistondan va qolgan 3,2 mln. qutisi boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi». O'zbekiston dunyoda uchunchi ipak yetishtiruvchi yirik mamlakat hisoblanib, bitta quti ipak qurti urug'idan o'rtacha 59,0 kg ipak unumini olishga erishmoqda. O'zbekistonning geografik joylashishi ayni paytda ipak qurti yetishtirish uchun qulayli ekologik hudud hisoblanib, har yili 380-400 mingta qutidan ziyod ipak qurti boqilib

kelinmoqda. Dunyo miqyosida tut ipak qurtining turli mintaqalar iqlim sharoitiga mos bo'lgan zot va duragaylarini yaratish hamda ipak qurti urug'chiligida yangi innovatsion agrotexnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etilgan ilimiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada dunyo global iqlim o'zgarishin inobatga olib, tut ipak qurtining keskin o'zgaruvchang va optimal iqlim shart-sharoitlariga mos zot va duragaylarini yaratish, ularni boqishning optimal intensiv yangi texnologiyalarin ishlab chiqish hamda xorijiy zotlarni introduksiya qilish zaruriy ilmiy -amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamizning o'ziga hos iqlim shart-sharoitlariga mos maxalliy zot va duragaylar yaratish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Biroq, xorijdan olib keltirilgan tut ipak qurti zotlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, ipak unumdarliligi navliligi va texnologik xususiyatlari bo'yicha o'z imkoniyatlarini arttirishga yo'naltirilgan optimal boqish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish va ilmiy asoslashga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-jil 20 - marttagi Ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha ilojlar to'g'risidagi PQ-3616 -sonli qarorlarida ipak qurti seleksiyasi yutuqlarini keng sinovdan o'tkazish, tut ipak qurti zot va duragaylarining boshlang'ich urug'chiligini rivojlantirish, hududlar tabiiy iqlim sharoitini hisobga olgan holda, ilg'or ilmiy ishlanmalar va intensiv agrotexnologiyalarni ishlab chiqish orqali, xalqaro standartlarga mos zot va duragaylarni yaratish, maxalliy ipak qurti va pilla ishlab chiqarishni orttirish, ularning sifatini yaxshilash yo'li bilan ipakchilik sanoati eksport imkoniyatlarini kengaytirishni belgilab berilgan. Shu boradagi barcha normativ - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bu magistrlik dissertatsiya izlanishlari muayyan darajada xizmat etadi.

Izlanish olib borish usillari. Maqsadni ro'yobga oshirishda Toshkent shahridan keltirilgan maxalliy zotlar yani Ipakchi 1 va Ipakchi 2 ipak qurti urug'lari olindi unga qiyoslovchi xorijdan keltirilgan Xitoy xaliq Respublikasidan keltirilgan Kitay-108 zoti ipak qurti urug'idan foydalanildi.

Bitta kapalak qo'ygan tuxum miqdori ;

Qo'ymadagi urug'lar soni ;

Tuxumning vazni;

Otalangan tuxumlar soni;

Otalanmagan tuxumlar soni;

Zotning nomi: Ipakchi-1

№	Jami tuxumlar soni (dona)	Otalangan tuxumlar soni(dona)	Otalanmagan tuxumlar soni (dona)	Qurib qolgan tuxumlar soni (dona)	1ta kapalak qoygan (qoyma) tuxum og'irligi (gr)	1 dona tuxum mg
1	456	447	9	-	250	0,559
2	629	628	1	-	370	0,589
3	538	535	3	-	280	0,523
4	477	475	2	-	270	0,568
5	795	785	10	-	470	0,598
Jami	2895	2870	25	-	1640	

Zotning nomi: Ipakchi-2

№	Jami soni tuxumlar (dona)	Otalangan tuxumlar soni(dona)	Otalanmagan tuxumlar soni (dona)	Qurib qolgan tuxumlar soni	1ta kapalak qoygan (qoyma) tuxum	1 dona tuxum mg
---	---------------------------	-------------------------------	----------------------------------	----------------------------	----------------------------------	-----------------

				(dona)	og'irligi (gr)	
1	384	383	1	-	220	0,574
2	503	501	2	-	290	0,578
3	586	579	7	-	300	0,518
4	720	719	1	-	380	0,528
5	635	626	9	-	370	0,591
Jami	2828	2808	20	-	1560	

Zotning nomi: Kitay-108

№	Jami tuxumlar soni (dona)	Otalangan tuxumlar soni(dona)	Otalanmaga n tuxumlar soni (dona)	Qurib qolgan tuxumlar soni (dona	1ta kapalak qoygan (qoyma) tuxum og'irligi (gr)	1dona tuxum mg
1	505	500	5	-	290	0,58
2	598	596	2	-	310	0,52 0
3	415	409	6	-	250	0,61 1
4	664	658	6	-	380	0,57

						7
5	506	501	5	-	310	0,61 8
Jami	2688	2664	24	-	1540	

Ipak qurtining so'nggi rivojlanish davri hisoblangan kapalak, o'zining násilini qoldirib, so'ng nobud bo'ladi. Kapalaklik davridagi asosiy faoliyat layoqatlilik násil qoldirish, juftlashish, urug'larni otalandirish va urug' qo'yishdan iborat. Bu vaqtda ham xuddi avvalgi bosqichlar kabi kapalakka me'yordagi harorat va namlik zarur bo'ladi, aks holda kapalak o'zining harorati bo'lmaganligi uchun juftlasha olmaydi, toliq otalanmaydi va embrional rivojlanish buziladi. O'sha sababli násilchilik va urug'chilikka ixtisoslashgan korxonalarida kapalaklar bilan ishlash vaqtida xona haroratini va namligini meyorida ushlab taqozo etiladi. Xona harorati birga havo namligi ham kapalakning juftlashishiga ta'sir etadi. Agar xona namligi 50 % dan quyi va 80 % dan yuqori bo'lsa, kapalaklarning dam olishi qiyinlashadi, harakatlanishi hamda juftlashishi pasayadi, va tuxumning ajralishi pasayadi. Kapalakning yaxshi dam olishi, juftlashishi uchun havo namligi meyorida 65-75 % te bo'lishi taqozo etiladi. Kapalaklarning yaxshi juftlasha oladigan eng qulay harorat 25-27 C hisoblanadi. Ipak qurti zotlarini papil'onaj davrida quyi yoki yuqori haroratda avlod olishda ularning erkak va urg'ochilarining fizologik jarayonlariga ta'sir etishi na'tiyjada kapalaklar juftlashishi pasayadi yoki aksincha juftlashish jadallashib tuxumning meyorida otalanishi aynishi aniqlandi.

Ipak qurti zotlaridan pillalaridan kapalak chiqishi.

Bu esa bir dona kapalak tashlagan tuximlar miqdori yoki qo'ymadagi tuximlar soniga, tuxim vazni, otalanmagan tuximlar foizi oshishiga olib kelishi berilgan jadvalda ko'rinib turibdi. Tut ipak qurti kapalagini meyorida 25-27 C harorat 65-75 % nisbiy namlik sharoitini yaratib berish kapalakning pushtdorlik ko'rsatkichlarini, xususan bitta kapalak tashlagan tuxim miqdori, qo'ymadagi tuximlar soni yoki bir

dona tuximning vazni meyorida bo'lishi urug'chilikka ixtisoslashgan korxonalariga katta iqtisodiy samaradorlikka olib kelinishi izlanishlarimizda o'z tasdiqini topganini ko'rishimiz mumkin. Kapalaklarni terish va juftlashtirish vaqtida nuqsonli kapalaklar bo'lsa, albatta aniqlanishi zarur. Bunday kapalaklar terib olinib, tashlab yuborilishi zarur, dog'li kapalaklar bo'lsa, albatta mikraskopta tekshirilishi shart va agarda pebrina mavjudligi aniqlansa, bunday pilla partiyasi yaroqsizga chiqariladi. Tut ipak qurtining tuxim unumdorligi urug'chilik ixtisoslik sohasining hassasi hisoblanadi. Ayrim zotlar tuxumi ko'p bo'lsa, ayrim zotlar unchalik ko'p tuxim qo'ymaydi. Ayniqsa, yuqori ipakchañ pilla o'raydigan zotlarning urg'ochi kapalaklari kamroq tuxim tashlaydi. Shuningdek agrotexnik qoidalar asosida qurtni boqish tuxim miqdori va sifatini ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yakunlab aytganda har uchta zotda ham kapalaklarning pushtdorligi har xil ega bo'lgan buni qo'ymalarning tahlilidan bilishimiz mumkin. Kapalaklarning pushtdorligi yuqoridagi bo'lgan qo'ymalar keyinchalik davrning ohirida yuqoridagi otalanmagan tuqimlar va tuqimlarning vazni o'zlarining yuqori natijalarini ko'rsatdi. Tut ipak qurti tuximlariniñ vazni va otalanmagan tuqimlarning vaznini tekshirish va tuqimlardan xastalik chiqmasligi ishlari javobgarchilikli protsess hisoblanadi. Shuning uchun ham pillachilik bilan shug'illanuvchi davlatlarda tuximlarni tekshirish protsesiga o'ziga xos ahamiyat bilan qaraladi va maxsus jihozlangan binolarda o'tkaziladi. Qaroraqalpog'iston iqlim sharoitida ipak qurti zotlarining unumdorligi va kapalaklarning pushtdorligi optimal boqish texnologiyasiga aloqadorligi o'z tasdiqini topdi. Ipak qurti tuximlarini meyor (26 -270 S) temperaturada jonlantirilganda tuximdağı embrion rivojlanishini meyorida bo'lib inkubatsiya davrini 10 -11 kunni tashkil etishi aniqlandi. Ipak qurti normativ (70-75%) namlikda boqilganda, lichinkalarning hayotchangligi yuqori bo'lib, har qanday xastaliklardan holi bo'lishi tasdiqlandi. Násilli pillalardan kapalaklar chiqishida tashqi muhit omillari, temperatura va namlikni agrotexnik talablaridan yuqori yoki quyi bo'lishi ipak qurti tuximlarini miqdori va sifatini (fizologik nuqsonli tuximlar hissasi) salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 мартдаги “Ўзбекипаксаноат уюшмаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2856-сон қарори. - Тошкент, 2017. 1-5-б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 мартдаги “Пиллачилик тармоғини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3616-сон қарори. - Тошкент, 2018. 1-4-б.

3. Абдурасулов Ш., Жуманова У., Беккамов Ч. Ипак куртига ёшлари бўйича берилган барг ва унинг ейилиши. // Зооветеринария. Тошкент, 2010.- №9. - Б.42-44.

6. Абдримова Г, Акилов, Умарова У, Худжаматов С. Пилла ҳосили қўлимизда. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналининг “Агро илм” илмий иловаси –Тошкент, 2016. №2. Б. 36.

4. Абдримова Г., Умарова С. Ипак куртининг саноатбоп дурагайлари тайдёрлаш. //Зооветеринария –Тошкент, 2017. -№3 Б. 41.

5. Абдримова Г., Салихова К. “Бомбикс-мори” ипак курти озиқаси. //Фермер –Тошкент, 2013. №1-2. Б. 58-59.

6. Абдримова Г., Ипак курти тухумларини жонлантириш жонланган куртларни тарқатиш ва боқиш. //ККОАНРУз «Проблемы рационального использования охрана биологических ресурсов южного приаралья», Нукус, 2014, №7, Б. 217-218.

7. Акижиков Я.С. Эффект отбора партий коконов по шелконосности при приеме на гренажных предприятиях. // Шелк. Тошкент 1994. - №1-2.-С.18-19.